“Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar	1665
Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li	
Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari	1671
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budget siyosatining qiyosiy tahlili.....	1677
Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich	
Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida	1683
Tashbaeva Saodatxon Alisherovna	
Финансовые технологии: сущность и задачи	1687
Амонова Хафиза	
O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....	1690
O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich	
Budget tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....	1695
Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich	
“Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....	1699
Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich	
To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	1703
Muxiddinova Kamola Sagdullayevna	
O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili	1708
Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich	
Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar	1714
Mo‘minova Kanizaxon	
Buxoro viloyatida agroklastar tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi	1718
Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna	
Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....	1724
Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich	
Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля)	1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли	
O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash.....	1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi	
Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish	1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna	
O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari	1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi	
Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....	1754
Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich	
Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar	1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li	
Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari	1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich	
Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari	1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich	
Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish.....	1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich	
Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....	1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich	



Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....	1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich	
O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....	1789
Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi	
Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash	1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich	
Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni	1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna	
Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati	1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich	
Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish	1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich	
Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....	1815
Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich	
Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish	1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich	
Mathematical statistics in biology and medicine	1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora	
"Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:	
O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar	1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich	
Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....	1837
Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov	
Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....	1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich	
Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....	1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна	
Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход	1858
Мадраимова Согдиана Равильевна	
Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari	1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li	
Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li	
Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish	1885
To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	1889
Darxanova Umida	
Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish	1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich	
O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari	1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li	
"Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari.....	1906
Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich	
Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise	1909
U. Yusupov, Ye Junjie	
Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....	1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна	



Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....	1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich	
O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish	1924
Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....	1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna	
Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....	1937
Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1944
Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li	
The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....	1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna	
Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari	1956
Maksudova Shaxzoda	
Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash	1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li	
Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo'yimalarning determinantlari: qoraqalpog'istonda aholi va byudjet daromadlarini ekonometrik o'rganish.....	1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich	
Klasterlash asosida xizmat ko'rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari	1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o'g'li	
Bugungi kunda inson kapitalidan to'g'ri foydalanish	1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o'g'li	
Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta'sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash.....	1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich	
Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari.....	1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich	
Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства	1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижабборович	
Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo'jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati	1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo'jayev Eldorxo'ja G'olibjon o'g'li	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish	2002
Baxtiyorova Dildora	
Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati	2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o'g'li	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari	2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich	
Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish	2016
Abdualimov Xabibullo Ne'matullayevich	
Axborot ochiqqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta'siri	2023
Shukurova Lilolaxon Darvinxo'ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa'dulla o'g'li	
Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане	2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи	
Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo'llari	2032
Ajibayeva Raiiya Maxsutovna	



Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari.....	2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna	
К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостепримства Республики Узбекистан.....	2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна	
Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish	2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich	
Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari.....	2051
Abdulkarimov O'tkir Xamzaevich	
Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish.....	2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li	
Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari.....	2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich	
Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi.....	2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich	
Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar.....	2070
Aipova Iroda Ikromovna	
Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli	2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich	
Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati	2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rivojlantirish istiqbollari.....	2085
Abduraximova Feruza Alisherovna	
Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish	2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi	
Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan	2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li	
Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi.....	2105
Iskandar Allazov	
Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi	2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari	2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors	2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Фолиб Рашидович	
Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari.....	2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari	2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna	
Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi.....	2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li	
Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin?.....	2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna	
Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts.....	2154
Bukhara State Technical University	
Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati.....	2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna	
Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish	2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi	



Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan.....	2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich	
Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish.....	2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna	
Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo'yiladigan chora tadbirlar.....	2184
Shakarov Qulmat Ashirovich	
O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo'llari.....	2189
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta'siri.....	2195
Valiyeva Oydin Orifjonova	
Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o'rgatish tajribalari.....	2201
Salomova Malika Zoxirovna	
Til o'rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari.....	2206
Kazakova Dilora Gaffarovna	
Adabiy matnlar orqali til o'rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini	2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna	
Iste'molchilar motivatsiyasida afzal ko'rish nazariyalaridan foydalanish	2214
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta'minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo'llari.....	2220
Turganbaev Nursultan Bayram uli	
Hududiy notenglikni kamaytirishda ta'lim resurslarini boshqarish strategiyasi	2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna	
Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan's Textile Industry.....	2229
Qingming Dong	
Тенденции развития финансового рынка в узбекистане.....	2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы	
Экономическая сущность монетарной политики	2239
Шомуродов Равшан Турсункулович	
Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o'ziga xos xususiyatlari	2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna	
Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане.....	2251
Мамаризоев Жахонгир Исохонович, Тураева Сурия Тельмановна	
LMA va LSTA tajribasi asosida o'zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo'llari	2256
G'ofurov Javohir Jahongir o'g'li	
Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish.....	2261
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li, Rasulov Ulug'bek Obidjon o'g'li	
Milliy iqtisodiyotni barqaror o'sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari.....	2266
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o'g'li	
Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ	2271
Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угиллой Абдурасуловна	
Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi	2276
Xomidova Kamola G'olib qizi	
Raqamli texnologiyalar yordamida kitobxonlik madaniyatini takomillashtirishning nazariy asoslari.....	2280
Burxanov Bahodir Baxtiyorxodjaevich	
Xorijiy mamlakatlarda bank-moliya sohasi rivojlanishida sun'iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta'siri.....	2286
Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich	
MS Excel dasturidagi son ko'rinishida bo'lgan pul miqdorini o'zbek tilidagi so'zlar bilan ifodalash.....	2291
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To'rayeva Feruza Dilmurodovna	



Joydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	2299
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi	
Yashil logistika konsepsiyasining barqaror rivojlanishda tutgan o'rni.....	2305
Boltayeva Shaxnoz Bebudovna, Muxamedova Sevara Azamatovna	



YASHIL LOGISTIKA KONSEPSIYASINING BARQAROR RIVOJLANISHDA TUTGAN O'RNINI

Boltayeva Shaxnoz Bebudovna

Buxoro davlat universiteti, Yashil iqtisodiyot
va agrobiznes kafedrası katta o'qituvchisi

ORCID: 0009-0003-3481-3456

Email: sh.b.boltayeva@buxdu .uz

Muxamedova Sevara Azamatovna

Buxoro davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yashil logistika konsepsiyasining mohiyati, uning iqtisodiy va ekologik samaradorligi, shuningdek, barqaror rivojlanishdagi o'rni tahlil qilinadi. Yashil logistikaning asosiy tamoyillari, atrof-muhitga ta'siri, va ishlab chiqarish jarayonlarida energiya tejash va chiqindilarni kamaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, O'zbekiston sharoitida yashil logistika amaliyotlarining joriy etilishi va bunday yondashuvning iqtisodiy samarasi ta'kidlanadi. Yashil logistika konsepsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan strategiyalar va davlat siyosatining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: logistika, yashil logistika, ekologiya, barqaror rivojlanish, ekologik iz, energiya sarfi, ekologik standart, yashil ombor.

Abstract: This article analyzes the essence of the concept of green logistics, its economic and environmental efficiency, as well as its role in sustainable development. The main principles of green logistics, the impact on the environment, and the possibilities of energy saving and reducing waste in production processes will be considered. The article also emphasizes the implementation of green logistics practices in the context of Uzbekistan and the cost-effectiveness of this approach. The role of strategies and public policies needed to implement the concept of green logistics will be highlighted.

Key words: logistics, green logistics, ecology, sustainable development, ecological footprint, energy consumption, environmental standard, green warehouse.

Аннотация: В данной статье анализируется сущность понятия “зеленая логистика”, ее экономическая и экологическая эффективность, а также роль в устойчивом развитии. Будут рассмотрены основные принципы зеленой логистики, влияние на окружающую среду, а также возможности энергосбережения и сокращения отходов в производственных процессах. В статье также подчеркивается внедрение практик “зеленой” логистики в контексте Узбекистана и экономическая эффективность данного подхода. Будет подчеркнута роль стратегий и государственной политики, необходимых для реализации концепции “зеленой” логистики.

Ключевые слова: логистика, зеленая логистика, экология, устойчивое развитие, экологический след, энергопотребление, экологический стандарт, зеленый склад.

KIRISH

Global iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va atrof-muhitga nisbatan ijtimoiy mas'uliyat ortib borayotgan hozirgi davrda “yashil logistika” konsepsiyasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Logistika faoliyatining an'anaviy shakli bu transportdan foydalanish, qadoqlash, saqlash va tarqatish bosqichlari – katta miqdorda energiya iste'moli va chiqindilar hosil bo'lishi bilan tavsiflanadi. Shu bois, zamonaviy logistika tizimlarida ekologik yondashuvni integratsiyalash orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda yashil logistika konsepsiyasi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, resurslarni tejash va ekologik izni kamaytirish orqali kompaniyalar va mamlakatlar uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu yondashuv doirasida transport, saqlash, energiya sarfi, qayta ishlash va chiqindilarni kamaytirish masalalari birgalikda ko'rib chiqiladi. Logistika sohasida yashil amaliyotlarni joriy etishning asosiy maqsadi nafaqat iqtisodiy foyda olish, balki atrof-muhitni himoya qilish va barqaror rivojlanish tamoyillariga mos kelishdir.

Ushbu maqolada yashil logistikaning mohiyati, uning asosiy tamoyillari, iqtisodiy va ekologik samaradorligi hamda O'zbekiston sharoitidagi amaliy jihatlari yoritiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil logistika – bu atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan tashkiliy va texnologik yechimlar tizimidir. So'nggi yillarda yashil logistika atrof-muhitga ta'sirni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim konsepsiya sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu maqola ikki muhim adabiyot: Wu, H.-J. & Dunn, S. C. (1995). "Environmentally responsible logistics systems"; Sbihi, A. & Eglese, R. W. (2010). "Combinatorial optimization and Green Logistics" asosida yashil logistikaning ahamiyatini, ularning amaliyotdagi rolini va iqtisodiy hamda ekologik ta'sirini ilmiy jihatdan tahlil qiladi.

Wu & Dunn (1995) o'z tadqiqotida logistika zanjirining barcha bosqichlarida ekologik yondashuvni qo'llash zarurligini ta'kidlab, atrof-muhitga zararli chiqindilarni kamaytirish, qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish va transportda yoqilg'i sarfini optimallashtirishni taklif etadi.

Sbihi & Eglese (2010) esa yashil logistika qarorlarini qabul qilishda matematik modellashirishning samaradorligini ko'rsatadi. Ular karbon izini kamaytirish bo'yicha transport yo'nalishlarini optimallashtirish, yuk tashish chastotasi va yoqilg'i sarfini kamaytirish kabi natijalarga erishgan.

Ushbu adabiyotlar asosida aniqlanishicha, yashil logistika ikki asosiy darajada o'zini namoyon etadi: strategik (uzoq muddatli rejalashtirish) va operatsion (kundalik faoliyatni ekologik standartlarga muvofiqlashtirish). Yashil logistika nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'lib, samarali energiya va resurslar boshqaruvi orqali xarajatlarni kamaytiradi. Sbihi va Eglesening yondashuvi yirik ishlab chiqaruvchi va distribyutor kompaniyalar uchun qulay bo'lsa, Wu va Dunnning konsepsiyasi logistika tizimining barcha bosqichlarida keng qo'llanilishi mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tanlangan adabiyotlar fan sohasida yuqori darajadagi e'tirofga ega bo'lib, amaliy va nazariy asoslar birgalikda yoritilgan. Ularning metodologiyasi quyidagi asosiy komponentlarni o'z ichiga olgan:

Adabiyot tahlili (Literature Review) - tadqiqot birinchi navbatda ilgari chop etilgan ilmiy maqolalarni tizimli tarzda o'rganish bilan boshlandi. "Green logistics", "supply chain sustainability", "carbon emission reduction in logistics" kabi asosiy kalit so'zlardan foydalangan holda akademik maqolalar tanlab olindi va ularning asosiy kontseptual yondashuvlari tahlil qilindi.

Kontent tahlili (Content Analysis) - har bir manbada ilgari surilgan yondashuvlar (ekologik nazorat mexanizmlari, tashish maromlarini optimallashtirish, chiqindilarni kamaytirish strategiyalari) kontent tahlili yordamida solishtirildi. Ushbu metod orqali mualliflarning ekologik va iqtisodiy yondashuvlari orasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlab chiqildi.

Model asosidagi yondashuv (Model-Based Approach) - Sbihi va Eglese (2010) tadqiqotida kombinator optimallashtirish modellari (masalan, Green Vehicle Routing Problem – GVRP) asosida logistik operatsiyalarni ekologik jihatdan samarali boshqarish usullari bayon etilgan. Ushbu model logistik xaritalash, yuk tashish marshrutlarini karbon chiqindilarini kamaytirishga yo'naltirib, matematik algoritmlar orqali hal qilinadi. Mazkur metodologik yondashuv ekologik mezonlarni logistik tizimga tatbiq etish uchun foydalidir.

Holatli tahlil (Case Study Analysis) - Wu va Dunn (1995) esa bir nechta sanoat tarmoqlari misolida ekologik logistika amaliyotlarini taqdim etgan. Ular logistik operatsiyalar davomida chiqindilarni kamaytirish, resurslardan takror foydalanish va bioyoqilg'i kabi texnologiyalarning qo'llanilishini real misollar bilan asoslashgan. Mazkur tahlil metodologiyasi, ayniqsa, ekologik javobgarlik va amaliy yechimlar o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatishda samarali bo'ldi.

Taqqoslash va sintez (Comparative and Synthetic Analysis) - har ikki adabiyotda keltirilgan yondashuvlar natijalari o'zaro taqqoslab chiqildi. Wu va Dunnning ekologik strategiyalari bilan Sbihi va Eglesening texnik jihatdan rivojlangan modellashirish usullari bir-birini to'ldiruvchi yo'nalishlar sifatida qaraldi. Ushbu metod orqali yashil logistika bo'yicha kontseptual va matematik asoslarning integratsiyalashgan modeli shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dunyo bo'yicha yashil logistika yondashuvlari kengayib borayotgan bir paytda, bu konsepsiya O'zbekiston iqtisodiyotida ham keng tarqalmoqda. O'zbekistonda yashil logistika amaliyotlarini qo'llash uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, ekologik transport vositalarini joriy etish va raqamli tizimlarni keng qo'llash muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, yurtimizda transport tarmog'ini modernizatsiya qilish, eksportni oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadida "yashil logistika"ni amalga oshirishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Yashil logistika nafaqat korxonalar darajasida, balki davlat siyosatida ham e'tiborga olinadigan, ekologik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib qolmoqda.

Yashil logistika (Green Logistics) bu mahsulotlar va xizmatlarning harakati bilan bog'liq logistika jarayonlarini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari asosida boshqarish tizimidir. U transport,



omborxona, qadoqlash, axborot oqimi, qayta ishlash va chiqindi boshqaruvi kabi bosqichlarda atrof-muhitga ta'sirni minimallashtirishga qaratilgan. Yashil logistika ta'minot zanjiri samaradorligini saqlagan holda karbon izi, energiya iste'moli va resurs sarfini kamaytirishni maqsad qiladi.



1-rasm. Yashil logistikaning ahamiyati.

1-rasmda yashil logistikaning foydalari vizual tarzda aniq ifodalangan. Har bir yo'nalish bu konsepsiyaning qanday jihatlarga foyda keltirishini ko'rsatadi:

Ekologik barqarorlikni ta'minlash. Transport va logistika eng ko'p karbon chiqindisi chiqaradigan sohalardan biridir (Jahon Banki ma'lumotiga ko'ra, transport CO₂ chiqindilarining 23% ini tashkil etadi). Yashil logistika orqali atmosferaga chiqadigan issiqxona gazlari kamaytiriladi, chiqindilar nazorat qilinadi va ekologik halokatlar ehtimoli kamayadi. Qayta ishlanuvchi qadoqlash, elektr transport vositalari, yoqilg'i sarfini optimallashtirish orqali ekologik iz pasaytiriladi.

Iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Yashil logistika texnologiyalari dastlabki bosqichda sarmoya talab qiladi, ammo uzoq muddatda xarajatlarni sezilarli darajada kamaytiradi. Energiya tejovchi texnologiyalar, optimallashtirilgan transport yo'nalishlari, ombor maydonlarining to'g'ri boshqaruvi xarajatlarni kamaytiradi. Misol uchun DHL kompaniyasi yashil logistika strategiyasi orqali 10 yilda 30% yoqilg'i tejatlashiga erishdi.


Brend ishonchini oshiradi va mijozlar sodiqligini kuchaytiradi. Bugungi iste'molchilar mahsulot tanlashda kompaniyaning ekologik siyosatiga e'tibor qaratmoqda. "Yashil kompaniya" imiji orqali bozordagi raqobatbardoshlik oshadi va investorlar ishonchi ortadi. Xalqaro savdo hamkorlari (ayniqsa Yevropa Ittifoqida) ekologik sertifikatlariga ega bo'lgan korxonalarni afzal ko'radi. Nielsen xalqaro tadqiqotida 2021 yilda respondentlarning 73 foizi yashil (sustainable) mahsulot uchun ko'proq pul to'lashga tayyorligini bildirgan.

Raqamli va texnologik innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Yashil logistika – IoT (Internet of Things), GPS monitoring, RFID, WMS (Warehouse Management System) kabi texnologiyalarni joriy qilish uchun samarali maydon. Avtomatlashtirilgan ombor tizimlari, elektr yuk tashuvchilar, karbon monitoring dasturlari orqali logistika zanjiri zamonaviylashtiriladi.

Davlat siyosatlari va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta'minlaydi. COP28, Parij kelishuvi, Yashil kelishuv (EU Green Deal) kabi global tashabbuslar logistika sohasini yashil yo'nalishga o'tkazishni majburiy qilmoqda. Yashil logistika orqali davlatlar milliy barqaror rivojlanish strategiyasini qo'llab-quvvatlaydi. O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot" strategiyasida ham ekologik logistika alohida yo'nalish sifatida ko'zda tutilgan.

Logistika sohasining zamonaviy rivojlanishi natijasida an'anaviy yondashuvlar o'rniga ekologik jihatdan barqaror va samarali bo'lgan yangi konsepsiyalar shakllanmoqda. Ushbu yo'nalishlardan biri sifatida yashil logistika (green logistics) tushunchasi tobora dolzarblashmoqda. Uni an'anaviy logistik tizim bilan taqqoslab ko'rish, mavjud farqlar va ustunliklarni aniqlash imkonini beradi.

An'anaviy logistika tizimi, odatda, mahsulotlarni ishlab chiqaruvchidan iste'molchigacha yetkazib berishning eng qisqa va iqtisodiy jihatdan arzon yo'llarini izlashga qaratilgan. Uning asosiy e'tibori – xarajatlarni kamaytirish, ombor va transport tizimini optimallashtirish, vaqt samaradorligini oshirish kabi iqtisodiy ko'rsatkichlarga qaratiladi. Biroq bu jarayonda ekologik omillar, atrof-muhitga ta'sir, chiqindilar miqdori va karbon izi kabi ko'rsatkichlar inobatga olinmaydi yoki ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo'ladi.



2-rasm. An'anaviy hamda yashil logistika tizimining bir-biriga o'xshash va bir-biridan farqli jihatlari.

Boshqa tomondan, yashil logistika konsepsiyasi transport va logistik faoliyatning ekologik izini kamaytirishga qaratilgan. Bu tizimda transport vositalarining yonilg'i sarfini kamaytirish, zararli gazlar chiqindilarini qisqartirish, qayta ishlashga yaroqli qadoqlash materiallaridan foydalanish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish kabi masalalar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yashil logistika nafaqat iqtisodiy, balki ekologik samaradorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu tizimda logistika jarayonlarining har bir bosqichi ekologik baholashdan o'tkaziladi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shuvchi yondashuvlar afzal ko'riladi.

Shuningdek, an'anaviy logistika tizimi ko'pincha qisqa muddatli iqtisodiy foydaga qaratilgan bo'lsa, yashil logistika uzoq muddatli barqarorlik, korxonaning ijtimoiy javobgarligi va ekologik obro'sini oshirishga yo'naltirilgan. Masalan, yashil logistika doirasida korxonalar uglerod chiqindilarini hisoblab borish, ekologik standartlarga muvofiqlikni ta'minlash va ekologik sertifikatlash tizimlariga qo'shilish orqali raqobatbardoshligini oshiradi.

1-jadval. Turli xorijiy mamlakatlarda yashil logistika strategiyalari.


№	Davlat	Chora-tadbirlar
1	Germaniya - yashil logistika borasida yetakchi mamlakatlardan biridir. U yerda "Green Logistics" konsepsiyasi davlat siyosati darajasida ilgari surilgan bo'lib, transport sohasida karbon chiqindilarini kamaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilanadi.	Temir yo'l transportini rivojlantirish va avtomobil transportiga muqobil sifatida qo'llash; EV (elektr transport vositalari) parkini kengaytirish, ayniqsa, yirik shaharlarda yuk tashish vositalarida; Logistika markazlarida energiya tejamkor omborlar va yashil energiya manbalari (quyosh, shamol) dan foydalanish; DHL, DB Schenker kabi yirik logistika kompaniyalari "GoGreen" tashabbuslari orqali uglerod izini kamaytirish ustida ishlamoqda.
2	Niderlandiya - dunyoning eng ilg'or logistika infratuzilmasiga ega davlatlardan biri sifatida port-logistika sohasida yashil yondashuvlarni muvaffaqiyatli joriy qilgan.	Rotterdam porti – dunyodagi eng ekologik barqaror portlardan biri sifatida tan olingan; Yuk tashish jarayonlarida barja va temir yo'l transportiga ustuvorlik beriladi; Portlararo integratsiya orqali logistika zanjirlarining CO ₂ chiqindilarini kamaytirish maqsad qilingan; "Green Deal Logistics" dasturi orqali logistika kompaniyalari davlat bilan ekologik maqsadlarda hamkorlik qiladi.
3	Yaponiya - yashil logistika strategiyasini texnologik innovatsiyalar orqali amalga oshiradi.	IoT va AI texnologiyalari orqali yuk oqimini aniq rejalashtirish va ortiqcha yoqilg'i sarfini oldini olish; Ekologik sertifikatlangan transport vositalarini joriy qilish va soliq imtiyozlari bilan rag'batlantirish; Qadoqlashni minimallashtirish va qayta ishlanadigan materiallardan foydalanish logistika zanjirining ajralmas qismiga aylangan; "Smart Logistics" konsepsiyasi doirasida "just-in-time" modelini ekologik optimallashtirish ishlari olib borilmoqda.



4	Shvetsiya - barqaror rivojlanishga sodiqligi bilan tanilgan davlatlardan biri sifatida yashil logistika siyosatini davlat strategiyasi darajasiga ko'targan.	2045-yilgacha nol karbon chiqindilarga erishish milliy strategiyaning bir qismi hisoblanadi; Transport tizimida bioyoqilg'i va elektr energiyasidan foydalanish faol yo'lga qo'yilgan; Uzoq masofali yuk tashuvlarda temir yo'l va dengiz transporti ustuvor bo'lib, avtomobil transportiga cheklovlar qo'yiladi; Logistika kompaniyalari uglerod auditi o'tkazishga majbur, bu esa ularni ekologik mas'uliyatli bo'lishga undaydi.
5	Xitoy - yashil logistika so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda, ayniqsa "Yashil Ipak yo'li" tashabbusi doirasida.	Yirik shaharlar atrofida yashil logistik hududlar (green logistic zones) barpo etilmoqda; Elektr yuk mashinalari va dronlar orqali shahar ichki yetkazib berish faoliyati amalga oshirilmoqda; Qadoqlash va chiqindilarni kamaytirishga qaratilgan qator milliy standartlar joriy etilgan; Raqamli logistika platformalari (masalan, Alibaba Logistics) orqali yetkazib berish tizimlari real-vaqt monitoringi asosida ekologik boshqariladi.

Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Turli mamlakatlarda yashil logistika strategiyalari o'ziga xos bo'lsa-da, ularni birlashtiradigan asosiy maqsad - uglerod chiqindilarini kamaytirish, transport tizimining ekologik ta'sirini minimallashtirish va logistika jarayonlarini barqarorlik tamoyillari asosida boshqarishdir. Bu tajribalar O'zbekistonda ham yashil logistika siyosatini shakllantirishda muhim namuna bo'la oladi.



3-rasm. Xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekistonning atrof-muhit samaradorligi indeksi (ball, 2024-y)¹.

Yuqoridagi diagramma 2024-yil uchun bir qator davlatlarning atrof-muhit samaradorligi indeksini (Environmental Performance Index – EPI) aks ettiradi. Ushbu indeks mamlakatlarning ekologik siyosatlari, atrof-muhitni muhofaza qilishga doir tashabbuslari va umumiy ekologik holatini baholashga xizmat qiladi. Grafikda ko'rsatilgan ballar 100 ballik tizim asosida baholangan.

2024-yilgi atrof-muhit samaradorligi indeksiga ko'ra, Germaniya (74,6 ball), Shvetsiya (70,5) va Niderlandiya (67,2) ekologik siyosat va texnologik yondashuvlar bo'yicha yetakchi o'rinda turadi. Yaponiya (61,7) ham barqaror rivojlanishga e'tibor qaratmoqda. Xitoyning past ko'rsatkichi (35,5) ekologik muammolarning dolzarligini ko'rsatadi. O'zbekiston esa 42,9 ball bilan oraliq pozitsiyada bo'lib, bu ekologik boshqaruv va innovatsiyalarni kuchaytirish zaruratini anglatadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston logistika sohasini modernizatsiya qilish va ekologik jihatdan barqarorlashtirish yo'lida muhim qadamlar tashlamoqda. Bu borada "yashil logistika" konsepsiyasining ayrim elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda, garchi tizimli darajada hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ayrim sektorlarda ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlanadi.

¹ <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/greenest-countries>



O'zbekistonda yashil logistikaning amaliy misollari:

Temir yo'l transportining ustuvorligi. O'zbekiston transport sohasini ekologik jihatdan optimallashtirishda temir yo'l transportiga ustuvorlik berilmoqda. Temir yo'l boshqa transport turlariga nisbatan karbon chiqindilari ancha past bo'lganligi sababli, bu yo'nalish yashil logistika tamoyillariga mos keladi. 2023-yilda O'zbekistonda tashilgan yuklarning 46% dan ortig'i temir yo'l orqali amalga oshirilgan (O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ma'lumotlariga ko'ra). "O'zbekiston temir yo'llari" AJ tomonidan ekologik xavfsiz lokomotivlar parki yangilanmoqda, yangi elektrovozlar xarid qilinmoqda.

Elektr transport vositalarining rivoji. So'nggi yillarda elektr yuk mashinalari va elektrobuslarni joriy etish bo'yicha ilk qadamlar tashlanmoqda. Bu jarayon ayniqsa yirik shaharlar - Toshkent, Samarqand, Namangan va Buxoroda amalga oshirilmoqda. 2024-yil yakunlariga qadar 1,000 dan ortiq elektr avtobus va taksilar yo'lga qo'yilishi rejalashtirilgan (Toshkent shahar hokimligi ma'lumotlari). Ayrim yirik oziq-ovqat kompaniyalari va onlayn yetkazib beruvchilar (masalan, Express24, MyTaxi) gibrid yoki elektr transport vositalarini joriy qilishni boshlagan.

Qadoqlash va chiqindilarni kamaytirish tashabbuslari. Logistika zanjirining muhim qismi bo'lgan qadoqlash jarayonlarida ham biologik parchalanadigan yoki qayta ishlanuvchi materiallardan foydalanish holatlari kuzatilmoqda. Ayrim yirik supermarketlar (Makro, Korzinka) eko-xaltalar va qayta ishlanadigan qadoqlashlarni joriy etgan. Onlayn savdo platformalari ekologik qadoqlashga o'tish bo'yicha davlat tomonidan soliq imtiyozlari va rag'batlantirish tizimini taklif qilmoqda.

Logistika markazlari va "yashil omborlar" konsepsiyasi. Yaqin yillarda Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlarida barpo etilgan logistika markazlarida energiya tejovchi texnologiyalar joriy qilinmoqda. Yangi logistika markazlarining 30% dan ortig'i quyosh panellari yoki issiqlikni qayta ishlovchi tizimlarga ega (Davlat statistika qo'mitasi va "UzLogistics" axborotiga ko'ra). 2022-yildan boshlab Yevropa Ittifoqi ko'magida "Barqaror logistika tarmoqlari" loyihasi boshlangan bo'lib, unda ekologik logistika standartlari joriy qilinmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil logistika - bu zamonaviy logistika jarayonlarini ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik tamoyillari asosida tashkil etish tizimi bo'lib, u global miqyosda barqaror rivojlanishga erishishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada yashil logistikaning nazariy asoslari, xalqaro amaliy tajribalari va O'zbekiston sharoitidagi holati atroflicha tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil logistika konsepsiyasi orqali nafaqat ekologik yuk kamaytiriladi, balki iqtisodiy samaradorlik ham oshiriladi - bu esa ishlab chiqaruvchi korxonalar, transport kompaniyalari va iste'molchilar uchun birdek foydali hisoblanadi.

Xalqaro tajriba asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, Germaniya, Niderlandiya, Yaponiya va Shvetsiya kabi mamlakatlar yashil logistika sohasida yetakchi o'rin egallab, ekologik standartlar, energiya tejamkor texnologiyalar va raqamli yechimlar orqali yuqori natijalarga erishgan. Bu tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim yo'nalishlar bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektr transport vositalarini joriy etish, ekologik toza qadoqlash materiallaridan foydalanish va raqamli logistika tizimlarini kengaytirish orqali yashil logistika elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shu bilan birga, davlat siyosati, soliq va investitsiya imtiyozlari, xalqaro standartlarga mos ekologik normativlar asosida bu tizimni yanada kengaytirish imkoniyati mavjud. Xulosa qilib aytganda, yashil logistika - bu kelajak logistika tizimining ajralmas qismi bo'lib, u ekologik xavfsizlik, iqtisodiy foyda va ijtimoiy mas'uliyatni uyg'unlashtirgan kompleks yondashuvdir. O'zbekiston uchun bu yo'nalishda tizimli yondashuv, xalqaro tajriba va innovatsion texnologiyalar asosida harakat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Махмудов, Н.М., & Рахимов, Х.Х. (2020). Логистика ва таъминот занжири бошқаруви. Тошкент: "IQTISOD-MOLIYA" нашриёти.
2. Rodrigue, J-P., Slack, B., & Notteboom, T. (2020). The Geography of Transport Systems (5th ed.). New York: Routledge.
3. Srivastava, S.K. (2007). Green supply chain management: A state of the art literature review. International Journal of Management Reviews, 9(1), 53–80.
4. Dekker, R., Bloemhof, J., & Mallidis, I. (2012). Operations Research for green logistics – An overview of aspects, issues, contributions and challenges. European Journal of Operational Research, 219(3), 671–679.
5. Jahon Banki (2022). Transport and Climate Change: Global CO₂ Emissions Database. Retrieved from: <https://data.worldbank.org>
6. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi (2023). Transport tarmog'i holati va istiqbollari bo'yicha hisobot. Toshkent: Rasmiy nashr.
7. Bolumole, Y.A., Frankel, R., & Naslund, D. (2007). Developing a theoretical framework for logistics outsourcing. Transportation Journal, 46(2), 35–54.



8. European Commission (2021). EU Green Deal and Sustainable Mobility Strategy. Retrieved from: <https://ec.europa.eu>
9. Savaskan, R.C., Bhattacharya, S., & Van Wassenhove, L.N. (2004). Closed-loop supply chain models with product remanufacturing. *Management Science*, 50(2), 239–252.
10. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi (2024). Yashil iqtisodiyot strategiyasi va ekologik logistika tamoyillari. Toshkent: Rasmiy axborot byulleteni.
11. Шахноз, Б. (2021). IMPROVING THE ACTIVITIES OF SMALL ENTITIES ON THE BASIS OF INNOVATIVE MARKETING TECHNOLOGIES. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 1(1).
12. Bebudovna, Boltayeva Shaxnoz. «ATROF-MUHITNING IFLOSLANISHI VA INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI.» SCIENTIFIC ASPECTS AND TRENDS IN THE FIELD OF SCIENTIFIC RESEARCH 2.17 (2024): 10-12.
13. Bebudovna, Boltayeva Shaxnoz, Abduhakimov Nurbekjon Nuriddin o'g'li, and Xo'jaqulov Ramozon Saloxiddinovich. «OZBEKISTONDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.» INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION 3.25 (2024): 172-175.
14. Болтаева, Шахноз. «The cost-effectiveness of the use of water resources in agriculture.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).
15. Болтаева, Шахноз. «Инновационные способы финансирования в агробизнесе.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz) 1.1 (2020).
16. Bebudovna, B., J. Ganjiyevich, and M. Tairova. «Ways of financing innovative activities in agrobusiness.» *Int. J. Acad. Manag. Sci. Res. IJAMSR* 5 (2021): 138-143
17. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/greenest-countries>
18. <https://stat.uz/uz>
19. <https://uzlogistic.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>